O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI BALIQCHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 19 - fevral 39-1-18-Q/24 Baliqchi tumani hokimligi

Baliqchi tumanida 2024 yilda aholi tomorqalaridan samarali foydalanish borasida qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12 fevralda o’tkazilgan yig’ilishida aholi tomorqa maydonlaridan samarali foydalanish bo’yicha vazifalar belgilab berildi. Tomorqa yerlariga tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ekinlarni joylashtirish, talab qilinadigan urug’lik, o’g’it, o’simliklarni himoya qilish vositalari bilan ta’minlash, tomorqalarda almashlab ekishni tashkil etish orqali yiliga uch marta hosil olish, mahsulot yetishtirish hajmlarini ko’paytirish va yetishtirilayotgan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini xarid qilishni tizimli tashkil etish maqsadida.

QAROR QILAMAN:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12 fevralda o’tkazilgan yig’ilishda tomorqa maydonlaridan yiliga uch marotaba hosil olish, qishloq xo’jaligida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bo’yicha belgilab bergan vazifalari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda aholi tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, ekin ekish ishlarini tizimli tashkil qilish, mahsulot yetishtirish hajmlarini ko’paytirish, qishloq xo’jaligida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bo’yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida:

Tomorqalarda yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish, qayta ishlash va eksportga yo’naltirish bo’yicha tomorqa xizmati korxonalari, lider tadbirkorlar, agregatorlar va meva-sabzavotchilik klasterlarini mahallalarga biriktirish hamda

2024 yilda aholi tomorqa yer uchastkalarida bahorgi (ertaki), takroriy (o’rtaki) va to’qsonbosti usulida ekinlar ekish, jumladan, uch marta hosil olishni nazarda tutuvchi qishloq xo’jaligi ekinlarini joylashtirish va mahsulot yetishtirish prognoz ko’rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

aholi tomorqalarida ixcham, muqobil energiyada isitiladigan issiqxonalar qurish, tomorqalarda yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash uchun kichik hajmli muzlatkichlar tashkil etish, quritish uskunalarini o’rnatish aholi tomorqalariga uzum, anor va boshqa serhosil mevali daraxt ko’chatlari ekish prognoz ko’rsatkichlari

2-ilovaga muvofiq;

tomorqa yer uchastkalari maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etish, tuproq-iqlim sharoiti va suv ta’minotidan kelib chiqib ekinlarni va mevali daraxtlarni ektirish, chorva mollari, parranda, quyon, asalari boqishni tashkil etishga ko’maklashuvchi ishchi guruhi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo’jaligi masalalari bo’yicha o’rinbosari, ishchi guruhi rahbari (L.Jo’raev), Qishloq xo’jaligi bo’limi (A.Qirg’izov), O’zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo’limi

(v.v.b Sh.Sattarov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining tuman bo’limi (Sh.Sattarov), Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (O.Biltirov), tuman O’simliklar karantini va himoyasi agentligi (Z.Nuriddinov), sektor rahbarlari, mahallalar raislari hamda hokim yordamchilari bilan birgalikda:

xonadonma-xonadon yurib tomorqa yer uchastkalari maydonlari, tuproq-iqlim sharoiti va suv ta’minotidan kelib chiqib ekin turlari, mevali daraxtlar turi va soni, chorva mollari va parrandalar soni shuningdek, ularning yil davomida tomorqa yer uchastkasida (ertaki, o’rtaki va to’qsonbosti) yetishtiriladigan mahsulot turlari va sotish hajmlari hamda issiqxona barpo etish, chorva mollari va parranda boqishga bo’lgan aholi xohishini o’rganib chiqish;

tomorqa yer egalarining yer uchastkalaridan maqsadli va samarali foydalanilishini, shu jumladan yerni tayyorlash, urug’, ko’chat va daraxtlar ekish, issiqxonalar qurish, chorva va parrandalarni ko’paytirish holatini davriy monitoring qilib borish;

tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, aholi tomorqalarini xizmatlar bilan

qamrab olish darajasini oshirish, shuningdek, mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlarini yanada ko’paytirish.

2024 yil davomida aholi tomorqalaridan yanada samarali foydalanish, 2-3 marta hosil olish, shuningdek, aholi tomorqalarida ertaki, takroriy va to’qsonbosti usulida ekinlar ekishning mahsulot turlari kesimidagi manzilli dasturini mahalla va xonadon kesimida ishlab chiqadi.

“Bir mahalla – Bir mahsulot” tamoyili asosida mahallalarni ixtisoslashtirish, aholi daromadlarini muntazam oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini ta’minlasin.

4. Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (O.Biltirov), usta dehqonlar va na’munali tomorqachilar ishtirokida tomorqa yerlaridan samarali foydalanish va yiliga 2-3 marta hosil olish bo’yicha 2024 yilga mo’ljallangan amaliy seminarlar hamda qisqa muddatli o’quv kurslari tashkil etish grafiklarini ishlab chiqsin, tomorqa yer egalarining bilim va ko’nikmalarini oshirib borishni tizimli yo’lga qo’ysin.

5. Tuman O’simliklar karantini va himoyasi agentligi (Z.Nuriddinov) dehqon xo’jaliklari va aholi tomorqalarida yetishtirilayotgan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini fitosanitar toza yetishtirish, eksportga yo’naltirish uchun usta dehqonlar va namunali tomorqachilar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etsin.

6. Suv xo’jaligi bo’limi (A.Yusupov) aholi tomorqalarida bahorgi (ertaki), takroriy (o’rtaki) va to’qsonbosti usulida ekilayotgan ekinlarni uzluksiz suv bilan ta’minlash uchun zaruriy suv limiti ajaratsin va ajratilgan suvni tomorqalarga yetib borishini ta’minlasin.

7. Tuman xokimligining matbuot xizmati M.Karimov, ishchi guruhi (L.Jo’raev), tuman O’simliklar karantini va himoyasi agentligi (Z.Nuriddinov), tuman Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (O.Biltirov) bilan birgalikda aholi tomorka yer uchastkalarida ekin ekish buyicha amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar, ilg’or tajribalar, shuningdek, yo’l qo’yilayotgan kamchiliklar haqida maxsus ko’rsatuvlar tayyorlash hamda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosariga hamda tuman hokimining qishloq va suv xo’jaligi masalalari bo’yicha o’rinbosari L.Jo’raev zimmasiga yuklatilsin.

Baliqchi tuman hokimi **J.Abdurayimov**

Baliqchi tuman hokimining
2024-yil 19-fevraldagi
39-1-18-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Балиқчи туманида 2024 йилда аҳоли томорқаларида баҳорги (эртаки), такрорий (ўртаки) ва тўқсонбости усулида экинлар экиш, жумладан, уч марта ҳосил олишни назарда тутувчи қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш ва маҳсулот етиштиришнинг

П Р О Г Н О З К Ў Р С А Т К И Ч Л А Р И

т/р	МФЙлар номи	Жами томорқа ер эгалари сони	Жами томорқа ер майдони, *(гектар)*	Бир марта хосил олинади		Икки марта хосил олинади		Уч марта хосил олинади		Маҳаллаларга бириктирилган томорқа хизмати корхоналари, лидер тадбиркорлар, агрегаторлар ва мева-сабзавотчилик кластерлари номи
				сони	майдони, га	сони	майдони, га	сони	майдони, га	

1	Файзаобод	417	22			3	0,16	414	22	
2	Сирмоқ	637	45			5	0,33	632	45	
3	Юзчинопр	380	25			3	0,18	377	25	
4	Аълам	653	40			5	0,29	648	40	
5	Янги хаёт	502	26			4	0,19	498	26	
6	Дарё бўйи	506	31			4	0,22	502	30	
7	Илғор	447	22			3	0,16	444	22	
8	Оқтепа	517	30			4	0,21	513	29	
9	Қохрамон	509	29			4	0,21	505	29	
10	Навнихол	532	36			4	0,26	528	36	
11	Сиза	651	36			5	0,26	646	36	"Баликчи томорқа хизмати" МЧЖ
12	Ўлмас	474	24			3	0,17	471	24	
13	Адолат	356	16			3	0,11	353	16	
14	Гузар	466	25			3	0,18	463	25	
15	Гулшан	484	28			4	0,20	480	28	
16	Маллачек	618	67			5	0,49	613	67	
17	Насриддинобод	736	56			5	0,41	731	56	
18	Тулкиобод	453	25			3	0,18	450	25	
19	Догистон	401	32			3	0,23	398	32	
20	Товулди	632	55			5	0,40	627	55	
21	Қўрғонча	326	20			2	0,15	324	20	

Сектор жами		**10697**	**692**			**78**	**4,99**	**10619**	**687**	
1	Саховат	620	37			5	0,27	615	37	"Ситрус фруит томорқа хизмати" МЧЖ
2	Дўстлик	482	22			4	0,16	478	22	
3	Юртобод	548	29			4	0,21	544	29	
4	Полвонкўл	676	37			5	0,27	671	37	
5	Дўнгсарой	606	34			4	0,25	602	34	
6	Эшончек	607	31			4	0,23	603	31	
7	Зулифқор	443	22			3	0,16	440	22	
8	Халфачек	361	18			3	0,13	358	18	
9	Истиқлол	390	18			3	0,13	387	18	
10	Мумтоз	797	40			6	0,29	791	40	
11	Муқанна	621	30			5	0,22	616	30	
12	Чароғон	473	24			3	0,17	470	23	
Сектор жами		**6624**	**344**			**48**	**2,48**	**6576**	**341**	

1	Ўртақўрғон	778	39			6	0,28	772	39	
2	Эскимарказ	721	23			5	0,17	716	23	
3	Алчазор	467	20			3	0,14	464	20	
4	Гўравон	696	33			5	0,24	691	33	
5	Аралхон	442	28			3	0,20	439	28	
6	Оққўрғон	630	13			5	0,09	625	13	
7	Авэсто	825	36			6	0,26	819	36	"Садаф нихоли" мева-сабзавотчилик кластери
8	Яккатол	601	25			4	0,18	597	25	
9	Афсона	435	34			3	0,24	432	33	
10	Серкуёш	559	29			4	0,21	555	29	
11	Каттабулоқ	598	20			4	0,14	594	19	
12	Кўл	729	26			5	0,19	724	26	
13	Жартепа	627	46			5	0,33	622	46	
14	Марказ	476	13			3	0,09	473	13	
15	Матонат	555	51			4	0,37	551	51	
Сектор жами		**9139**	**437**			**67**	**3,15**	**9072**	**434**	

1	Сортепа	396	22			3	0,16	393	21	
2	Тўда	556	34			4	0,24	552	34	
3	Ифтихор	503	16			4	0,11	499	16	
4	Шўр	631	18			5	0,13	626	18	
5	Тўмор	483	27			4	0,19	479	26	
6	Ботир	593	22			4	0,16	589	22	
7	Захкаш	385	33			3	0,24	382	33	
8	Нурафшон	589	21			4	0,15	585	21	
9	Қумтепа	558	51			4	0,37	554	50	"Асиа лигхт стар" МЧЖ
10	Фаровон	487	20			4	0,15	483	20	
11	Кўл бўйи	471	24			3	0,17	468	24	
12	Туркистон	658	37			5	0,26	653	36	
13	Шеробод	440	23			3	0,17	437	23	
14	Баркамол	642	35			5	0,25	637	35	
15	Қияли	799	49			6	0,36	793	49	
16	Сарновул	713	58			5	0,42	708	58	
17	Омонариқ	850	35			6	0,25	844	35	
18	Жасорат	807	82			6	0,59	801	81	
Сектор жами		**10561**	**607**			**77**	**4**	**10484**	**603**	
Туман жами:		**37021**	**2080**			**271**	**15**	**36750**	**2065**	

Baliqchi tuman hokimining
2024-yil 19-fevraldagi
39-1-18-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Балиқчи туманида 2024 йилда аҳоли томорқаларида ташкил этилиши режалаштирилган иссиқхоналар, кичик ҳажмли маҳсулотларни қуритиш цехи, кичик ҳажмли совуткичли омборлар, узум, анор ва серҳосил мевали дарахт кўчатлари экиш

ПРОГНОЗ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Т/р	МФЙлар номи	Ташкил этиладиган иссиқхоналар		Қуритиш цехи		Кичик совуткичли омбор (хажми 10-50 тоннагача)		Узум кўчатлари экиш		Анор кўчатлари экиш		серҳосил мевали дарахт кўчатлари экиш *(олма нок бодом ..)*	
		сони (бирлик)	майдони (га)	сони	ҳажми (тонна)	сони	ҳажми (тонна)	хонадон сони бирлик	майдон, га	хонадон сони бирлик	майдон, га	хонадон сони бирлик	майдон, га
1	Файзаобод	17	0,21					63	2,7	10	0,4		
2	Сирмоқ	27	0,33					96	5,5	16	0,9		
3	Юзчинопр	16	0,19					57	3,0	9	0,5		
4	Аълам	27	0,33					98	4,9	16	0,8		
5	Янги хаёт	21	0,26					75	3,2	12	0,5		
6	Дарё бўйи	21	0,26					76	3,7	13	0,6		
7	Илғор	19	0,23			1	15	67	2,7	11	0,4		
8	Оқтепа	22	0,26	1	60			78	3,6	13	0,6		
9	Қоҳрамон	21	0,26					76	3,6	13	0,6		

10	Навнихол	22	0,27					80	4,3	13	0,7		
11	Сиза	27	0,33					98	4,4	16	0,7		
12	Ўлмас	20	0,24					71	2,9	12	0,5		
13	Адолат	15	0,18					53	1,9	9	0,3		
14	Гузар	20	0,24					70	3,0	12	0,5		
15	Гулшан	20	0,25					73	3,4	12	0,6		
16	Маллачек	26	0,32			1	15	93	8,2	15	1,3		
17	Насриддинобод	31	0,38			1	11	111	6,8	18	1,1		
18	Тулкиобод	19	0,23					68	3,1	11	0,5		
19	Догистон	17	0,20					60	3,9	10	0,6		
20	Товулди	26	0,32					95	6,7	16	1,1		
21	Қўрғонча	14	0,17	1	60			49	2,5	8	0,4		
Сектор жами		**448**	**5**	**2**	**120**	**3**	**41**	**1607**	**84**	**266**	**14**	**0**	**0**
1	Саховат	26	0,32					93	4,5	15	0,7		
2	Дўстлик	20	0,25					72	2,7	12	0,4		
3	Юртобод	23	0,28					82	3,6	14	0,6		
4	Полвонкўл	28	0,35					102	4,5	17	0,7		
5	Дўнгсарой	25	0,31					91	4,1	15	0,7		
6	Эшончек	25	0,31					91	3,8	15	0,6		
7	Зулифқор	19	0,23			1	15	67	2,7	11	0,4		
8	Халфачек	15	0,18	1	60			54	2,2	9	0,4		
9	Истиқлол	16	0,20					59	2,2	10	0,4		

10	Мумтоз	33	0,41					120	4,8	20	0,8		
11	Муқанна	26	0,32					93	3,6	15	0,6		
12	Чароғон	20	0,24					71	2,9	12	0,5		
Сектор жами		**278**	**3**	**1**	**60**	**1**	**15**	**995**	**42**	**165**	**7**	**0**	**0**
1	Ўртақўрғон	33	0,40					117	4,7	19	0,8		
2	Эскимарказ	30	0,37					108	2,8	18	0,5		
3	Алчазор	20	0,24					70	2,4	12	0,4		
4	Гўравон	29	0,36					105	4,0	17	0,7		
5	Аралхон	19	0,23	1	60			66	3,4	11	0,6		
6	Оққўрғон	26	0,32					95	1,6	16	0,3		
7	Авэсто	35	0,42					124	4,4	21	0,7		
8	Яккатол	25	0,31					90	3,1	15	0,5		
9	Афсона	18	0,22					65	4,1	11	0,7		
10	Серкуёш	23	0,29					84	3,5	14	0,6		
11	Каттабулоқ	25	0,31					90	2,4	15	0,4		
12	Кўл	31	0,37					109	3,2	18	0,5		
13	Жартепа	26	0,32					94	5,6	16	0,9		
14	Марказ	20	0,24			1	10	71	1,6	12	0,3		
15	Матонат	23	0,28					83	6,2	14	1,0		
Сектор жами		**383**	**5**	**1**	**60**	**1**	**10**	**1373**	**53**	**227**	**9**	**0**	**0**
1	Сортепа	17	0,20					59	2,6	10	0,4		
2	Тўда	23	0,28					84	4,1	14	0,7		

3	Ифтихор	21	0,26					76	1,9	12	0,3		
4	Шўр	26	0,32					95	2,2	16	0,4		
5	Тўмор	20	0,25					73	3,2	12	0,5		
6	Ботир	25	0,30			1	10	89	2,6	15	0,4		
7	Захкаш	16	0,20					58	4,0	10	0,7		
8	Нурафшон	25	0,30					88	2,5	15	0,4		
9	Қумтепа	23	0,29					84	6,1	14	1,0		
10	Фаровон	20	0,25	1	60			73	2,4	12	0,4		
11	Кўл бўйи	20	0,24					71	2,9	12	0,5		
12	Туркистон	28	0,34	1	60			99	4,4	16	0,7		
13	Шеробод	18	0,22			1	10	66	2,8	11	0,5		
14	Баркамол	27	0,33	1	60	1	10	96	4,3	16	0,7		
15	Қияли	33	0,41					120	6,0	20	1,0		
16	Сарновул	30	0,36					107	7,1	18	1,2		
17	Омонариқ	36	0,43	1	60			128	4,3	21	0,7		
18	Жасорат	34	0,41	1	60			121	9,9	20	1,6		
Сектор жами		**443**	**5**	**5**	**300**	**3**	**30**	**1586**	**74**	**262**	**12**	**0**	**0**
Туман жами:		**1552**	**19**	**9**	**540**	**8**	**96**	**5560**	**252**	**920**	**42**	**0**	**0**

Baliqchi tuman hokimining
2024-yil 19-fevraldagi
39-1-18-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Балиқчи туманида томорқа ер участкалари майдонларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш, тупроқ-иқлим шароити ва сув таъминотидан келиб чиқиб экинларни ва мевали дарахтларни эктириш, чорва моллари, парранда, қуён, асалари боқишни ташкил этишга кўмаклашувчи

И Ш Ч И Г У Р У Х И

1.Л.Жураев-	Туман ҳокимининг қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича ўринбосари, **ишчи гуруҳи раҳбари**
2.А.Қирғизов -	Қишлоқ хўжалиги бўлими
3.Ш.Саттаров-	Ўзбекистон маҳаллалар уюшмаси туман бўлими
4.В.В.Б.Ш,Саттаров-	Камбағалликни қисқартириш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлигининг туман бўлими
5.О.Билтиров-	Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши
6.З.Нуриддинов-	туман Ўсимликлар карантини ва ҳимояси агентлиги
7.Сектор рахбарлари	Масул бириктирилганлар
8.Махалла раислари 66 нафар:	Масул МФЙ рахбарлари
9.Хоким ёрдамчилари 66 нафар:	Масул Хоким ёрдамчилари